AYRIS MYORDOK IJODIGA ILMIY-NAZARIY YONDASHUVLAR

Rasulova Gulbakhor
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti assistenti
https://doi.org/10.5281/zenodo.7722483

Annotatsiya. Maqolada ayris Myordokning ilmiy faoliyati va ijodiga ilmiy-nazariy yondashuvlar ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Iste’dodli yozuvchi asarlariga olimlar tomonidan qator munosabat bildirilgan. Aksariyat tadqiqotchilar uning badiiy mahorati, uslubi, voqelikni badiiy-falsafiy idrok etishiga katta e’tibor berishgan. Natijada Ayris Myordok ijodiga yondashuvlarning turli yo‘sinlari shakllangan.

Kalit so‘zlar: ijodkor dunyosi, uning xayoloti, tasavvuri, aqli, bilimi, so‘zshunosligi, talanti, geniysi, insoniyligi, iste’dodi, poetik mahorati.

Аннотация. В статье научно обоснованы научно-теоретические подходы к научной деятельности и творчеству Ирис Мёрдок. Ученые высказали ряд отзывов о произведениях талантливого писателя. Большинство исследователей уделяли большое внимание его художественному мастерству, стилю, художественно-философскому восприятию действительности. В результате сформировались разные подходы к творчеству Айрис Мердок.

Ключевые слова: мир творца, его воображение, воображение, ум, знание, словарный запас, талант, гениальность, человечность, талант, поэтическое мастерство.

Abstract. The scientific and theoretical approaches to scientific activity and creativity of Iris Murdoch are scientifically substantiated in the article. Scientists have expressed a number of reviews about the works of a talented writer. Most researchers paid great attention to his artistic skill, style, artistic and philosophical perception of reality. As a result, different approaches to the work of Iris Murdoch were formed.

Keywords: the world of the creator, his imagination, imagination, mind, knowledge, vocabulary, talent, genius, humanity, talent, poetic skill.

Ma’lumki, Ayris Myordok voqelikni badiiy idrok etar ekan, uni o‘ziga xos ko‘radi va tushunadi. Aynan shu voqelikni boshqa odam boshqacha tasvirlaydi. Natijada bir xil voqelikka turlicha yondashuv yuzaga keladi. Bu erda birinchi o‘rinda yozuvchining uslubi namoyon bo‘lgani ko‘zga tashlanadi. Zero, «Uslub – ijodkor dunyosidir, uning xayoloti, tasavvuri, aqli, bilimi, so‘zshunosligi, talanti, geniysi, insoniyligi – butun borlig‘ini namoyon etuvchi hodisa, vosita» [1, 284-b.] hisoblanadi. Demak, yozuvchi o‘z romanida tasvirlayotgan borliq, voqelik birinchi galda uning xayoloti, tasavvuri va o‘zi mansub davr,jamiyat badiiy-estetik ideallaridan o‘sib chiqadi. Bu esa uslub yozuvchi iste’dodi, poetik mahorati yuzaga chiqishini ta’minlovchi vosita ham ekanligi

isbotlaydi. Lekin, eng muhimi, yozuvchi real borliqdan o‘zi yaratayogan badiiy asar uchun olgan voqelik,detal, obraz albatta o‘zgarishlarga uchraydi. YA’ni yozuvchi rael borliqdan olgan materialni o‘zining badiiy niyati asosida qayta ishlaydi. Natijada real borliqning biz ko‘rgan jihatidan boshqacharoq ko‘rinishi paydo bo‘ladi. SHu erda badiiy shartlanganlik, badiiy til ifodasi, dispozitsiya va kompozitsiya, fabula va syujet, prototip va obraz(xarakter) kabi masalalar o‘rtaga chiqadi.

Aslida adabiyotshunoslikda asarning badiiy xususiyatlari, jumladan, kompozitsiya, syujet, obraz, asar tili, yozuvchi uslubi kabi masalalar bo‘yicha qadimdan bahs yuritib kelinadi. Platon badiiy asardagi kishiga ezgulik urug‘ini ekadigan voqealarga diqqat qilish kerakligini ta’kidlagan bo‘lsa [2, 184-b.], Aristotel asardagi fabula, syujet, xarakter, badiiy nuqt masalalarini teranroq ifodalaydi [3, 353-b.]. SHuning uchun barcha davrlarda tadqiqotchilar yaratilgan asarda birinchi o‘rinda badiiy xususiyatni aniqlashni maqsad qilishadi. Jumladan, Ayris Myordok romanlaridagi syujet, kompozitsiya, konflikt, obrazlar tizimi kabi badiiylik masalalari ham ingliz, rus olimlari tomonidan tadqiq etilgan. Qizig‘i, bunda bir-biriga o‘xshamagan yakuniy xulosalar etarlicha topildi.

To‘g‘ri, bu haqda ishning kirish qismida ham ba’zi ma’lumotlar keltirildi. YOzuvchi ijodi haqidagi manbalarni o‘rganish jarayonida jahon adabiyotshunosligida Ayris Myordok asarlari turlicha aspektlardan tadqiq etilgani aniqlandi. Xususan, Ayris Myordokning tarjimai holini yozgan va yozuvchining oilaviy do‘sti bo‘lgan Piter Konradning Ayris Myordok tarjimai holiga oid asari e’tiborga loyiq sanaladi [3, 353-b.]. Mazkur kitob Ayris Myordok haqidagi eng ishonchli manbalardan biri sanaladi. Uning kirish qismida “For John Bayley and for Philippa Foot”(Jon Beyl va Filippa Futga bag‘ishlanadi)deb yozilgan.

Ayris Myordok va uning turmush o‘rtog‘ini yaqindan bilgan hamda uzoq yillar ular bilan do‘st, hamkor sifatida bo‘lgan muallif yozuvchi asarlariga yuksak baho bergan. Ayniqsa, axloqiy-psixologik, diniy-mistik, ekzistensialistik qarashlari, muhabbatga platonik nuqtai nazar bilan yondashgani haqidagi ma’lumotlar ilmiy va hayotiy dalillar bilan asoslangan. Bu esa Ayris Myordok shaxs sifatida serqirra va murakkab ekanligini anglatadi. Piter Konrad Ayris Myordok asarlari va uning biografiyasiga oid ma’lumotlar haqida quyidagilarni yozadi:

Iris’s early memories were of swimming, singing and being sung to, of animals, and of wonderment at the workings of the adult world. She sat at the age of about seven under the table while her parents played bridge – either reading a favourite childhood book or, as she put it, ‘simply sitting in quietness’ and listening in astonishment to the altercations and mutual reproaches of the adults at the end of each rubber. Wonderment, imaginative identification with a fantastic range of creature-kind, capacity to feel strong emotions, secretiveness, and also Irishness: these are recurrent and related themes within her story [4, 34-b.]. (Ayrisning ilk xotiralari suzish, qo‘shiq aytish va

ota-onalariga qo‘shiq ayttirish, hayvon va katta olamining farqli tomonlarini ko‘rib hayron qolishi kabilardan iborat bo‘lgan. Tahminan etti yoshida stol tagiga kirib olgancha ota-onasi bilan o‘ynagani, sevimli kitobini o‘qish yoki shunchaki jim o‘tirib janjal va tortishuvlarni hayrat bilan eshitardi. Har bir janjalning oxirida kattalarning xayolida o‘ziga xos kengliklarga egaligi, yashirin his-tuyg‘u, his etish qobiliyati kabilarga boyligini, ularning takrorlanishi barchasi uning asarlariga tegishli mavzu edi). Ko‘rinadiki, Piter Konrad yozuvchi asarlaridagi mavzular real hayotdan olingan va ular realistik asosga ega ekanligini ilgari surgan. Lekin bu fikrni yozuvchining barcha asarlariga birdek tegishli deyish xato bo‘ladi. CHunki diniy-mistik yoki fantastik asarlaridagi etakchi voqealar sof badiiy to‘qima hisoblanadi.

Maria Antonasio esa “Insonni tasvirlash: Ayris Myordokning axloqiy fikri” nomli ” asarida (My contention is that Murdoch's realism can best be understood as a form of "reflexive" or "hermeneutical realism."This means that she will be seeking a criterion of valid moral knowledge in and through the reflexive medium of consciousness itself.) “Mening fikrimcha, Myordok asarlaridagi realizmni “refleksiv” yoki “germenevtik realizm” sifatida yaxshiroq tushunish mumkin. Bu shuni anglatadiki, u refleks orqali haqiqiy axloqiy bilim mezonlarini izlaydi” [7, 116-b.], deb qayd etadi. Adabiyotshunosning mazkur xulosasini Ayris Myordok ijodining dastlabki paytidagi romanlarda tasvirlangan shaxslarning hayotiy muammo va masalalarga shartli ravishda yondashuviga nisbatan ham qo‘llash mumkin. Masalan, Dora (“Qo‘ng‘iroq”)ning o‘z hayotidagi turli munosabat va voqelikka jiddiy yondashmasdan, o‘zini bu jamiyat yoki oilaning ortiqcha odami deb bilishini uning psixologiyasidagi o‘zgarish, aniqrog‘i, shartli refleksiya hodisasi bilan bog‘lash mumkin. YOki shu romandagi turli voqea va detallar talqini (hatto,odamlar Doraning eri yoniga qaytishini ham boshqa talqin etishganini eslash kerak) zamirida yozuvchining germenevtik realizmiga yaqinligi e’tirof etish kerak. Lekin shu erda ikkinchi muammo kelib chiqadi. Ayris Myordok Doraning o‘z oilasi, aniqrog‘i, erining oldiga qaytishi, bungacha bo‘lgan qator bosimlar, ruhiy zo‘riqish, ikkilanish kabi holat va vaziyatlarni bunday talqin imkonini yo‘qdek tuyuladi. SHuning uchun olim ilgari surgan mazkur yondashuv bilan kelishib bo‘lmaydi.

Vaholanki, “asarning turli qismlari orasidagi mutanosiblik kompozitsiya deb ataladi. ... Asar kompozitsiyasi, dastavval, muallifning tasvir etilayotgan hayotiy materialga munosabati bilan belgilanadi, ya’ni kompozitsiya birinchi navbatda g‘oyaviy-estetik tushunchadir ” [8, 124-b.]. SHundan kelib chiqsak, Ayris Myordok “Qo‘ng‘iroq”romanida syujetdagi turli talqin va tahlillar yordamida o‘zining etakchi g‘oyaviy-estetik qarashlarini ifodalamoqchi bo‘lgan. Natijada roman uslub jihatdan realizm talabiga to‘la mos tushgan.

Ayris Myordok haqidagi yana bir dissertatsiya muallifi Mariya Altrof Ayris Myordok ijodida dunyoviy badiiy obraz va obrazlilikning falsafiy qatiy yaratilishi

masalasi tadqiq etilgan [9, 160-b.]. Bunda tadqiqotchi yozuvchining badiiy obrazli tafakkur tarzi, real voqelikni aniq badiiy maqsad yo‘lida botiniy olamida qayta yaratishi hamda badiiy obraz sifatida qog‘ozga tushurish jarayonlariga jiddiy yondashgan [10].

E.A.Osipenko “Ayris Myordokning 50-80 yillardagi romanlarida o‘yin badiiyati tamoyillari”ni tadqiq etar ekan [11, 20-b.], dastlab “o‘yin badiiyati” tushunchasiga izoh berishdan boshlaydi. So‘ngra uning evolyusiyasi, Ayris Myordok romanlaridagi so‘z o‘yinlari, kompozitsiya qurishdagi o‘yin usullari tamoyillari, romanda voqealarni sahnalashtirish tiplari, asar strukturasidagi ichki va tashqi o‘yin tiplari haqida fikr yuritadi. “O‘yin- bu Ayris Myordok romanlarida shakl hosil qiluvchi muhim g‘oyaviy-falsafiy omil bo‘lib, yozuvchi shu yo‘l bilan o‘z niyatini amalga oshiradi”, degan to‘xtamga keladi. Biz ham romanlar tadqiqida bazi o‘rinlarda voqealarning oson va qulay rivojlantirgan qahramonlarni atayin boshqa joylarga yo‘naltirish va shu orqali syujet tarkibiga qo‘shimcha harakat maydonini jalb etish orqali romandagi kompozitsiyani kengaytirgani hamda shu yo‘l bilan qahramon idrokida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan asosiy g‘oyaning “pishib etilishini” kutganini kuzatdik.

Qabardin-Bolqor davlat universiteti tadqiqotchisi L.K.Bayramqulova Ayris Myordok asarlaridagi intermatnlilik muammosini Shekspir asarlari bilan yaxlitlikda o‘rgangan [12, 32-b.]. Bunda har ikki yozuvchi matnlarining o‘zaro yaxlitligi, ingliz badiiy tafakkuridagi badiiylik konstruksiyalarining Shekspirdan Myordok asarlarida qo‘chgani hamda bu ikki ijodkor yaratgan badiiy matn mohiyatini bir tizim sifatida ochib beradi. Ayris Myordokning uchta romanidagi syujet va kompozitsiya, obrazlar tizimi, etakchi uslubiy jihatlar tahlili yordamida SHekspir va Myordok ijodidagi g‘oyaviy-estetik va tipologik yaqinlik qonuniyatlari tadqiq etilgan. SHekspirdagi teatrlashgan badiiyatning Ayris Myordok romanlaridagi ifodasi, sahna asarlarini qayta mazmun kasb etishi haqida fikr yuritilgan.

Boshqiriston davlat universitetida Ayris Myordokning o‘tgan asr elliginchi yillarida yaratgan romanlari badiiyati jiddiy o‘rganilgan [13, 24-b.]. Jumladan, Anna Nikolaevna Nikiforova yozuvchining falsafasaga bo‘lgan qiziqishlari uning ilk romanlari badiiyatini belgilashi, aynan, ekzistensializmning ta’sirini to‘g‘ri ta’kidlagan. Bunda yozuvchining “Sartr: romantik-ratsionalist” (1953) asarini alohida tilga oladi. Haqiqatdan ham, “Tuzoqda” (1954) nomli romanida personaj oldida turgan ikkita hayotiy yo‘l va undan qay birini tanlash muammosi badiiy ifodasini topgan. Olima ta’kidlashicha, keyinroq Myordok Platon va Immanuel Kant g‘oyalariga qiziqib, ularni o‘z asarlarida mazmuniga singdirib yuboradi.Ilk romanlarida XX asr o‘rtalarida ma’naviy inqirozga uchragan odam qiyofasining umumiy tarzda ochib berishi, qahramonlar hamda romanlar syujeti ham Sartr, Platon va Kant qarashlari ta’sirida shakllantirilgani romanning zamonaviy adabiyotshunoslikdagi o‘rnini baholashda asosiy mezon vazifasini o‘taydi.

Ayniqsa, Kantning go‘zallikni anglash, sevgi va ezgulik konsepsiyalari “Sehrgardan qochish”(1956), “Qumdagi qasr” (1957) romanlarida ozod odam ezgulik, muhabbat tushunchalarini qanday anglashi misolida real voqelikda tasvirlaydi. Bunda u Platon va Kant g‘oyalarini qayta talqin etar ekan liberallik va axloq masalasida shaxsiy pozitsiyasini aniq ko‘rsatadi. Natijada ishqiy sarguzasht ma’nosidagi roman janri badiiy falsafiy roman darajasiga o‘sib chiqadi.

Rus olimi Tatyana YUrevna Timoninaning dissertatsiyasida Ayris Myordokning o‘tgan asrning 60-70 yillardagi romanlari misolida nur va zulmat poetologiyasi, aniqrog‘i yozuvchining badiiy nur va zulmat konsepti, detallari misolida badiiy yaratuvchilik mahorati ochib berilgan [14, 193-b.]. Xususan, “Ayris Myordok fenomeni: san’atkor va faylasuf” nomli birinchi bobida yozuvchining G‘arbiy Evropa romanchiligi tarixidagi o‘rni, Ayris Myordok ijodining g‘oyaviy-falsafiy evolyusiyasi haqida fikr yuritilgan. “Ingliz adabiyotining mumtoz namunasi sifatida e’tirof etilgan Ayris Myordok fenomeni haqiqatdan ham noyob sanaladi. U nafaqat etuk san’atkor balki, mohir faylasuf ham hisoblanadi”. Demak, Evropa adabiyotshunosligida Ayris Myordok etuk yozuvchi va faylasuf sifatida tan olingan. Lekin Ayris Myordok o‘z intervyularida yozuvchi va faylasuf sifatidagi faoliyatida katta farq borligini, romanlarini falsafiy deyilishiga qarshi ekanligini, bunda, avvalo, falsafiy asarlarning “haqqoniyligi” va qat’iy dalillarga asoslanganligiga, badiiy ijodda esa o‘quvchi va muallif muloqoti etakchiligi, bunda romandagi badiiy to‘qima o‘quvchi fikrini uyg‘otishi, insonning anglash qobiliyatiga ozuqa bo‘luvchi o‘yin borligiga urg‘u beriladi. T.Yu.Timonina Ayris Myordokning ana shunday mulohazalarini keltirar ekan. Badiiy ijod va faylasuflik o‘rtasidagi teran aloqa borligini e’tirof etadi. Demak, shu bilan Ayris Myordokning fikriga qarshi boradi. Bizningcha, bu to‘g‘ri pozitsiya bo‘ladi. Chunki badiiy ijod ham tafakkur, falsafa bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lib, har ikkalasi ham inson tafakkuri faoliyatining mahsuli hisoblanadi.

Ayris Myordokning roman va falsafiy asarlarini farqlash haqidagi mulohazasida falsafada ilmiy ong etakchiligi, badiiy ijodda esa badiiy tarzda fikrlash ustunligi to‘g‘ri asoslangan. Bu erda yozuvchi nutqning funksional vazifasidan kelib chiqib yondashgan. SHunda biri ilmiy uslubda, ikkinchi esa badiiy uslubda yoritilishi oydinlashadi. Zero, “San’atkor yaratadigan obraz oddiy in’ikoslardan farqli o‘laroq, voqelikni badiiy tarzda hissiy aks ettiradi” [15, 108-b.]. Lekin badiiy asar ham ijtimoiy ong mahsuli ekanligi, unda badiiy falsafa mavjudligi yozuvchi faoliyatining o‘zaro yaxlitligini ta’minlaydi. Shu ma’noda yozuvchi asar yaratayotganda real borliq ustida badiiy mushohada yuritadi. Agar ana shu badiiyligi bo‘lmaganda edi, uni hayot muammolari haqida fikr yuritgan faylasuf deyish mumkin bo‘lar edi.

Aslida ham Ayris Myordok yaratgan romanlar o‘zi yashagan davr va jamiyatning obrazi sanaladi. Binobarin, “Badiiy obraz borliqning (undagi narsa,hodisa va b.) san’atkor ko‘zi bilan ko‘rilgan va ideal asosida ijodiy qayta ishlanib, hissiy idrok etish

mumkin bo‘lgan shaklda ifodalangan aksidir” [16, 90-b.]. SHunday ekan uni badiiy tafakkur mahsuli deyish mumkin. SHunday bo‘lsa-da, Ayris Myordok romanlaridagi personajlar xarakteridagi qat’iyat etishmasligi, tez o‘zgaruvchanlik kabi xislatlar yozuvchida ham uchrashi manbalarda qayd etilgan. Masalan, hayotining ma’lum davrida marksistik g‘oyalarga ergashgani, yangi platonchilikni targ‘ib qilgani, ekzistensiallik tarafdori bo‘lgani, muhabbatga idealistik omil deb qarashi, voqelikka diniy-mistik munosabatlari kabilar Ayris Myordokning murakkab xarakterini anglatadi. Bir ayolda shuncha falsafiy tushuncha va g‘oyalarga ergashish qanday paydo bo‘lgani va ularni qachon anglab etgani haqida aniq ma’lumot olish qiyin sanaladi. Xususan, uning vafotidan keyin Qirollik universiteti katta mablag‘ evaziga sotib olgan shaxsiy maktublari tadqiqida yozuvchining fransuz yozuvchisi Raymon Kenoga bo‘lgan munosabati haqida ham so‘z boradiki, bu fikrimizga dalil bo‘la oladi [17]. Xatlarning aksariyat qismi 1946-1955 oralig‘ida bitilgan. Lekin oralarida 1975 yilda yozilganlari ham bor. Bunday yozishmalar 1976 yil, ya’ni Raymon Kenoning vafotigacha davom etgan. Unda yozuvchining diniy, falsafiy qarashlari hamda Raymon Kenoga bo‘lgan o‘tli muhabbati ifodalangan. Aslida Ayris Myordok Keno bilan 1946 yilda Avstriyada BMT ijtimoiy yordam bo‘limida ishlayotganda tanishishgan. O‘shanda Ayris 27 yoshda Keno esa undan o‘n olti yosh kattaroq yoshda hamda qator kitoblari nashrdan chiqqan etuk yozuvchi sanalgan. Qizig‘i, ayol Kenoni olti yilgacha zimdan sevib yurgan. Bu haqda o‘sha paytda Keno bilmagan. Keyinroq Kenoga ma’lum bo‘lgan. Holbuki, 1953 yilda Ayris oila qurgan bo‘lgan. SHu erda Ayrisning xarakteridagi beqarorlik, ta’sirchanlik va xayoliy muhabbatga intilish borligi ko‘rinadi.

Xulosa sifatida aytish joizki, taniqli ingliz yozuvchisi Ayris Myordok ijodi o‘tgan asrning o‘rtalaridan beri adabiyotshunoslar tomonidan o‘rganilib kelinadi. Turli yillarda adib asarlarga turli aspektlardan yondashuvlar kuzatildi. Bunda ba’zi olimlar sof nazariy poetikadan kelib chiqib taxlil qilganlar ko‘pchilikni tashkil etadi. Lekin bir manbada biografik metod asosida yondashilsa, boshqalarida psixoanalitik, badiiy-falsafiy, diniy-mistik, modernistik, posmodernistik, qiyosiy-tipologik nuqtai nazardan, yana bosh ishlarda lingvopoetik jihatlari tahlilga tortilgan. Lekin eng muhimi yozuvchi asarlariga bo‘lgan qiziqish hamon davom etmoqda.

Adabiyotlar:

1. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.
2. Aflotun. Davlat. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2011.
3. Arastu. Poetika. Axloqi kabir. Ritorika. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2012.
4. Conradi P. J.Iris Murdoch: A Life: The Authorized Biography — London: HarperCollins, 1998. – 772 p. https://litres.ru.

5. Conradi P. J. Iris Murdoch: The Saint and the Artist. N. Y.: St. Martin‘s Press, 1986.

6. Conradi P. J.Iris Murdoch: A Life: The Authorized Biography - London: HarperCollins, 1998. – p. 34. https://litres.ru.

7. Maria Antonaccio. Picturing the human : the moral thought of Ins Murdoch. Published by Oxford University Press. 2000.

8. Sulton, Izzat. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent. O‘qituvchi, 2005.

9. Marije Altorf . Iris Murdoch and the art of imagination, imaginative philosophy as response to secularism. The disssertacionthe degree of doctor of philosophy. Centre for the study of literature, theology and the arts university of Glasgow. July 2004.

10. Rasulova G.K. The Problem Of Symbolism In The Novel By Iris Murdoch The Bell. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities ISSN: 2249-7315. Vol. 12, Issue 01, January 2022 SJIF 2021 = 8.037 A peer reviewed journal.

11. Осипенко Е.А.Осипенко Принципы игровой поэтики в романах Айрис Мёрдок в 50-80-годов. Автореферат дисс... канд.фил.наук. – Санкт Петербург, 2004.

12. Байрамкулова Л.К. Поэтика Айрис Мёрдок в свете проблемы интертестуальности: Мёрдок и Шекспир. Автореферат дисс.канд.фил.наук. - Москва, 2005.

13. Никифорова А.Н. Поэтика романов Айрис Мёрдок 1950-х годов. Автореферат дисс... канд.фил.наук. – Уфа, 2007.

14. Тимонина Т.Ю.Поэтология света и тьмы в творчестве А. Мёрдок (на материале романов конца 1960-х – 1970-х годов). Дисс…. канд. филол.наук – Калининград, 2016.

15. Kollektiv. Adabiyot nazariyasi. 2 tomlik. Birinchi tom. – Toshkent: Fan, 1978. – B.108.

16. Quronov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018.

17. Кирилл Головастиков. Чего же боле: Письма рассказали о неразделенной любви Айрис Мёрдок. http//lenta.ru.